

2025  
№4

# TAFAKKUR ZIYOSI

ILMIY-USLUBIY JURNAL

ISSN 2181-6131



Jurnal O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy Attestatsiya komissiyasining filologiya, falsafa, tarix va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan. Jurnalning indeks raqami: 3535



JDPU TAHRIRIY  
NASHRIYOT  
BO'LIMI



Suratda Germaniyaning Baden-Vyurtemberg federal hududi, Stuttgart shahrida joylashgan yirik jamoat kutubxonasi va madaniy markaz.

2025 №4

# TAFAKKUR ZIYOSI

## ILMIY-USLUBIY JURNAL

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy Attestatsiya komissiyasining filologiya, falsafa, tarix va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan. Jurnalning index raqami: 3535



JDFU TAHRIRIY  
NASHRIYOT  
BO'LIMI



ISSN 2181-6131



**BOSH MUHARRIR**

**Maksudjan Yuldashev** – pedagogika fanlari doktori, professor.

**MUHARRIR O'RINBOSARI**

**G'ayrat Qodirov** – pedagogika fanlari doktori, dotsent.

**Farrux Aqchayev** – tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent.

**Anora Jabborova** – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent.

**Xaqberdi Xamzayev** – texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent.

**MAS'UL KOTIB**

**Xurshid Maxammadiyev** – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent.

**TARJIMONLAR:**

**Zubayda Jumayeva** – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent (rus tili bo'yicha).

**Eldar Hasanov** – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent (rus tili bo'yicha).

**Nargiza Bo'riyeva** – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent (ingliz tili bo'yicha).

**Dildora Baxriddinova** – katta o'qituvchi (ingliz tili bo'yicha).

**MUSAHHIHLAR**

**Feruza Jumayeva** – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent.

**Murodulla Jo'rayev** – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori.

**SAHIFALOVCHILAR**

**Sirojiddin Turg'unboyev**

**Zulayxo Shakarova**

**MUASSIS** – Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika universiteti.

Jurnal bir yilda 4 marta (har chorakda) chop etiladi.

Matnlarda foydalanilgan iqtibos va ma'lumotlar aniqligi uchun mualliflar mas'uldirlar.

Jurnaldan ma'lumot ko'chirib olinganda, manba qayd etilishi shart.

**Manzil:** 130100, Jizzax shahri, Sharof Rashidov ko'chasi, 4-uy.

**Telefon:** +998 72 226 02 93,  
+998 93 298 22 12

**Faks:** +998 72 226 46 56

**TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI**

- **Anatoliy Sagdullayev**, tarix fanlari doktori, akademik
- **Komiljon Tojiboyev**, biologiya fanlari doktori, akademik
- **Andrey Zuyev**, Novosibirsk davlat universitetining Gumanitar instituti professori, tarix fanlari doktori (Rossiya)
- **Stiven Korbet**, Portsmud universiteti, tillar va amaliy tilshunoslik yo'nalishi professori (Buyuk Britaniya)
- **Seyko Wazake**, Chibu universiteti doktori (Yaponiya)
- **Donina Lyudmila**, Sankt-Peterburg davlat universiteti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi (Rossiya)
- **Jakelin Duglas**, Norwich tillar o'qitish instituti professori (Buyuk Britaniya)
- **Himmat Karadal**, Izzet Baysal universiteti professori (Turkiya)
- **Tuba Yilmaz**, Nejmiddin Erbakan universiteti professori (Turkiya)
- **Qozoqboy Yo'ldoshev**, pedagogika fanlari doktori, professor
- **Abdunazar Nurmonov**, pedagogika fanlari doktori, professor
- **Usmonjon Qosimov**, filologiya fanlari doktori, professor
- **Abdug'afur Mamatov**, filologiya fanlari doktori, professor
- **Umrzoq Jumanazarov**, filologiya fanlari doktori, professor
- **Faniya Axmedshina**, tarix fanlari doktori, professor
- **Shokir G'afforov**, tarix fanlari doktori, professor
- **Baxti Ochilova**, falsafa fanlari doktori, professor
- **Akbar Saitkasimov**, falsafa fanlari doktori, professor
- **Zuhra Yaxshiyeva**, kimyo fanlari doktori, professor
- **Marat Sultonov**, kimyo fanlari doktori, professor
- **Raximboy Yarmatov**, pedagogika fanlari doktori, dotsent
- **Rustam Abdurasulov**, psixologiya fanlari doktori, dotsent
- **Xudoybergan Mavlonov**, biologiya fanlari doktori, dotsent
- **Yulduz Karimova**, filologiya fanlari nomzodi, dotsent
- **Ilyos Islamov**, tarix fanlari doktori, dotsent
- **Mo'min Hoshimxonov**, falsafa, filologiya va pedagogika fanlari doktori
- **Hamid Meliyev**, pedagogika fanlari doktori, professor
- **Furqat Axmedov**, pedagogika fanlari nomzodi, professor
- **Oleg Kim**, filologiyafanlari nomzodi, dotsent
- **Muxtorqul Pardayev**, tarix fanlari nomzodi, dotsent
- **Botir To'xtamish**, texnika fanlari nomzodi, dotsent
- **Rabbim Yusupov**, texnika fanlari nomzodi, dotsent
- **Abduvali Shamshiyev**, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent
- **Qo'chqor Hakimov**, geografiya fanlari nomzodi, dotsent
- **Sarvar Nazarqosimov**, sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent
- **Sherali Abduraimov**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent
- **Feruza Jumayeva**, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent
- **Bobomurod Toshboyev**, falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy Attestatsiya komissiyasining filologiya, falsafa, tarix va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal Jizzax viloyati Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasidan 2020-yil 25-aprelda 06-042 raqam bilan qayta ro'yxatga olingan. Jurnalning xalqaro ISSN raqami: 2181-6131.

2025-yil 25-dekabr kuni bosmaxonaga topshirildi.

Qog'oz bichimi A4.

Buyurtma: \_\_\_\_\_

Nashr adadi: 100

JDPU TAHRIRIY  
NASHRIYOT  
BO'LIMI



## MUNDARIJA

## 01. TAQVIM

<b>Ona tilimiz istiqboli va badiiy so‘z san’ati</b> .....	11
Usmon Qosimov – professor, Jizzax davlat pedagogika universiteti	
Gulmira Abdullayeva – tayanch doktorant, Jizzax davlat pedagogika universiteti	

## 02. PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA VA INNOVATSION TA'LIM

<b>Ta'lim sifatini boshqarishning xalqaro tajribasi</b> .....	17
Sherali Abduraimov – p.f.f.d. (PhD), professor, Renessans ta'lim universiteti	
<b>Sharq allomalari xalq o'yinlari vositasida yoshlarning jismoniy tayyorgarligini oshirish</b> .....	21
Tal'at Saidovich Usmanxodjayev – p.f.d., professor, O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti	
Xamidilla Abdullayevich Meliyev – p.f.n., professor, Jizzax davlat pedagogika universiteti	
Nuriddin Abdualimovich Chorshamiyev – p.f.b.f.d. (PhD), dotsent, O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti	
<b>Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish omillari</b> .....	26
Sherzod Raxmanovich Urakov – p.f.d., dotsent, Kattaqorg'on davlat pedagogika instituti rektori	
G'ayrat O'roqboyevich Qodirov – p.f.d., dotsent, Jizzax davlat pedagogika universitetini barqaror rivojlantirish bo'yicha rektor maslahatchisi	
<b>Sanoat va ta'lim hamkorligida kadrlar tayyorlashning tizim va mexanizmlari</b> .....	33
Mirzoxid Axmadjanovich Tuxtabayev – dotsent, Namangan davlat texnika universiteti	
<b>Integrativ yondashuv va kreativ fikrlash o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik</b> .....	38
Feruza Meliyevna Sadriddinova – dotsent, Jizzax davlat pedagogika universiteti	
<b>Multimedia yordamida ta'lim muassasalari faoliyatini baholash va sifat nazoratini amalga oshirish</b> .....	43
Hurriyat Xurramovna Eshova – f.f.b.f.d. (PhD), O'zbekiston Milliy universiteti	
<b>Aksiologik yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarda deontologik kompetentlikni rivojlantirish modeli</b> .....	48
Abduvohid Abdulazizovich Boltayev – p.f.b.f.d., Jizzax davlat pedagogika universiteti	
<b>Umumta'lim maktablarida o'quvchilarning tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari</b> .....	53
Eldor Utkir o'g'li Ochilov – Biologiya bo'limi boshlig'i, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi Respublika ta'lim markazi	
<b>Bo'lajak o'qituvchilarda metametodik kompetentlikni rivojlantirishning innovatsion metod va shakllari</b> .....	57
Orif Abduxalikovich G'aniyev – p.f.f.d. (PhD), Jizzax davlat pedagogika universiteti	

<b>Umumta'lim maktab o'quvchilarida tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish masalalari</b> .....	62
Sevara G'iyosiddinova Xasanova – p.f.f.d. (PhD), Ta'limni rivojlantirish Respublika ilmiy-metodik markazi	
<b>Bo'lajak muhandislarning ishlab chiqarish-texnologik kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish</b> .....	67
Mansur Erkinovich Qodirov – p.f.f.d (PhD), Jizzax davlat pedagogika universiteti	
<b>Talabalarda affiliiativ motivatsiyani rivojlantirishda guruh hamkorlikning ahamiyati</b> .....	71
Nilufar Omon qizi Omonova – (Phd), Termiz iqtisodiyot va sevis universiteti	
<b>Социально-психологическая характеристика буллинга в поведении подростков</b> .....	79
Раъно Усаровна Мунарова – старший преподаватель, Джизакский государственный педагогический университет	
<b>Umumta'lim maktab o'quvchilarida o'yin imkoniyatlarini rivojlantirish</b> .....	84
Alisher Yunusovich Bo'riboev – katta o'qituvchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti	

### 03. AMALIY FANLAR

<b>O'quvchilar jismoniy madaniyat ta'limini milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida takomillashtirish zarurati</b> .....	90
Furqat Ko'ldoshevich Axmedov – p.f.n. professor, Jizzax davlat pedagogika universiteti	
<b>Boshlang'ich sinf o'quvchilariga milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirishga oid o'quv me'yoriy-huquqiy va metodologik asoslari</b> .....	94
Shodiyor O'rolovich Atamurodov – dotsenti, Jizzax davlat pedagogika universiteti	
<b>Zamonaviylik kontekstida me'morlarning kasbiy-grafik kompetentligi mazmuni: muammo va yechimlar</b> .....	98
Kamolitdin Abduhakimovich Zoyirov – p.f.n. dotsent, Jizzax pedagogika universiteti	
<b>12-14 yoshli voleybolchilarda texnik-taktik tayyorgarlik jarayonini takomillashtirishning ilmiy asoslari</b> .....	102
Furqat Qo'ldoshevich Axmedov – p.f.n., professor, Jizzax davlat pedagogika universiteti Shoxsanam Xolmurod qizi Turapova – o'qituvchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti Bekzod Babakulov – o'qituvchi, O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali	
<b>Sport faoliyatida shaxsning o'ziga xos xususiyatlarini shakllanishida motivatsiyaning ta'siri</b> .....	107
Otabek Tursunovich Bahromov – PhD., dotsent, Jizzax davlat pedagogika universiteti	
<b>Erkin kurashchilarning texnik tayyorgarligini takomillashtirishda metabolik ta'minot va ovqatlanishning ilmiy asoslari</b> .....	114
Nodir Azim o'g'li Xonto'rayev – mustaqil izlanuvchisi (PhD) Jizzax davlat pedagogika universiteti	
<b>O'quvchilarni ma'naviy tarbiyalashda jismoniy madaniyat va sport tadbirlarining o'ziga xos xususiyatlari</b> .....	120
Akmal Tugalboyevich Quvondiqov – o'qituvchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti	

## 04. IJTIMOYIY FANLAR

<b>Erkin fikrlash va liberal ta'limning falsafiy asoslari</b> .....	126
Baxti Murodovna Ochilova – f.f.d., professor, Jizzax davlat pedagogika universiteti	
<b>Oliy ta'lim muassasalari talabalarida ekologik madaniyatni rivojlantirishning ijtimoiy-huquqiy asoslari</b> .....	140
Kalandar Abdullayevich Saparov – b.f.d., professor, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti	
Gulshat Sultamuratovna Berdibayeva – assistent o'qituvchi, O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya sport universiteti Nukus filiali	
<b>Развитие Темуроведения в период независимости: исследования, результаты</b> .....	147
Зебо Рашидовна Яхшиева – д.ф.н. (DSc), Туронского университета, академик Академии наук Турон	
Манзура Бекмирзаевна Рустамова – магистр, Компьютерные системы и управления	
<b>Axborotlashgan jamiyatning ijtimoiy hayotni modernizatsiyalash va inson resurslarini rivojlantirish bilan dialektik aloqadorligi</b> .....	153
Tolibjon Eshqobilovich Ergashev – f.f.b.f.d. (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Boshqaruv samaradorligi agentligi Jizzax viloyati filiali bosh inspektori	
<b>Shaxsga yo'naltirilgan davlat xizmati: sun'iy intellekt yordamida tezkor, adolatli va shaffof boshqaruv</b> .....	158
Sarvar Inatillaevich Nazarqosimov – s.f.b.f.d. (PhD), dotsent, Jizzax davlat pedagogika universiteti	
<b>Milliy xarakter va axloq uyg'unligining shaxs ma'naviyatiga ta'siri</b> .....	162
Bobomurot Eshboyevich Toshboyev – f.f.b.f.d. (PhD), dotsent, Jizzax davlat pedagogika universiteti	
<b>Ikkinchi jahon urushi yillarida O'zbekistonda jamoat xavfsizligini ta'minlashda radioning o'rni</b> .....	167
Mashhura Muhammadaminovna Temirova – (PhD). dotsent, Qo'qon davlat universiteti	
<b>Sharqiy Turkistonda an'anaviy "Mashrab bazmlari"</b> .....	172
Rasul Muxitdinovich Soatov – f.f.b.f.d.(PhD), dotsent v/b Jizzax davlat pedagogika universiteti	
<b>Стабильность общества и ее значение в развитии общественных отношений</b> .....	176
Абдурашид Базарбаевич Шарипов – Руководитель начальной допризывной подготовки политехникума №2, Шароф Рашидовского района Джизакской области	
<b>Talabalarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasini rivojlantirishga oid nazariy yondoshuvlar</b> .....	180
Rustam Abdimanonovich Kosimov – O'quv-uslubiy boshqarmaning Talabalar amaliyoti bo'limi boshlig'i Jizzax davlat pedagogika universiteti	
<b>Sayfiddin Boxarziy ta'limotida komil insonni tarbiyalash asoslari</b> .....	184
Malika Fayzulloyevna Norova – f.f.d. (PhD), Buxoro davlat universiteti	
<b>Demokratik jamiyatda qonun ustuvorligi va huquqiy madaniyat</b> .....	189
Zumrad Kasimova – katta o'qituvchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti	
<b>Ta'lim turizmining inson kapitali rivojiga va mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga ta'siri</b> .....	196
Azamat Juraboyevich Usmanov – katta o'qituvchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti	

## 05. FILOLOGIYA FANLARI

<b>Xalq maqollarida “Non” konseptining lingvomadaniy xususiyatlari va semantikasi</b> .....	202
Umrzoq Abdurazzoqovich Jumanazarov – f.f.d., professor, Jizzax davlat pedagogika universiteti Mahliyo Norboy qizi Aripova – tayanch doktorant, Jizzax davlat pedagogika universiteti	
<b>Karnon voqeasi yoxud Boburshoh shaxsiyatining olti qirrasini</b> .....	208
Yulduz Akulovna Karimova – f.f.d. (DSc), dotsent, Jizzax davlat pedagogika universiteti	
<b>J.R.R. Tolkin asarlarida “Tabiat” konseptining faollashuvi</b> .....	213
Nargiza Bo‘riyeva – PhD. dotsent, Jizzax davlat pedagogika universiteti	
<b>Ingliz va o‘zbek ertaklarida bo‘rining yetakchi hamda raqib personaj sifatida tasvirlanishi.</b> .....	218
Tuxtamurod Olimovich Kuchkarov – f.f.d (DSc) dotsent, O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Jizzax akademik litseyi	
<b>Фразеология и грамматика: границы, пересечения, взаимодействие.</b> .....	225
Абдукарим Сулайманович Мусаев – д.ф.ф.н. (PhD), доцент, Джизакский государственный педагогический университет	
<b>Tilshunos olim Ayyub G‘ulomovning morfemikaga oid ilmiy qarashlari</b> .....	229
Xanifaxon Shukurillayevna Xamdamova – dotsent, Jizzax politexnika instituti	
<b>Eshqobil Shukur she‘riyatida okkazonalizmlarning estetik vazifalari.</b> .....	233
Xayrulla Hamdamovich Ibragimov – f.f.f.d. (PhD) dotsent, O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali	
<b>Jorj Gordon Bayronning “Kain” dramatik misteriyasida insoniyat taqdiri va isyonkorlik motivlari</b> .....	236
Parda Qurbonov – dotsent, Turon universiteti	
<b>Qashqadaryo shevalarining o‘rganilishi</b> .....	240
Anvarbek Xusinovich Turdaliyev – v.b. dotsent, Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Lazizjon Azamat o‘g‘li Tursunov – magistr, Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti	
<b>Аббревиация как процесс языковой экономии в современном лексическом составе</b> .....	244
Ирина Рафаиловна Авясова – д.ф по ф.н PhD, Джизакского государственного педагогического университета Александр Игоревич Шакирджанов – Подполковник преподаватель цикла института военной авиации университета безопасности и обороны РУ	
<b>Alisher Navoiy she‘riyatida badiiy detal ifodasi.</b> .....	250
Xolyigit Xolmurodov – f.f.b.f.d. (PhD) Jizzax davlat pedagogika universiteti	
<b>Qozoq bolalar folklorida ranglarning badiiy ifodasi</b> .....	254
Hulkar Qahramonovna Aliqulova – f.f.f.d. (PhD), Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti	
<b>Using modern educational technologies in teaching classical literature</b> .....	259
G‘ayrat Boyzoq o‘g‘li Israilov – PhD, Jizzakh State Pedagogical University	

<b>The necessity of developing critical thinking in the process of teaching a foreign language: the case of Uzbekistan. ....</b>	<b>264</b>
Gulruh Majidova – Senior Lecturer, Jizzakh State Pedagogical University	
Gulruiy Donisheva – Teacher, Jizzakh State Pedagogical University	
<b>Alisher Navoiy yaratgan so‘fiyona adabiyot yohud tasavvufiy – gumanistik qarashlariga salaflar ta’siri. ....</b>	<b>267</b>
Mohira Muradovna Ankabayeva – (PhD), Jizzax davlat pedagogika universiteti	
<b>Abdulla Oripov poeziyasida nur poetik obrazi. ....</b>	<b>273</b>
Nuriniso Raximovna Umarova – PhD, Alfraganus University	

## 06. TABIIY VA ANIQ FANLAR

<b>Xlor mavzusini o‘qitishning didaktik asoslari, shakllantirish va ishlanmalarini yaratish usullari ....</b>	<b>277</b>
Marat Mirzayevich Sultonov – professor, Jizzax davlat pedagogika universiteti	
Ikrom Botirovich Egamberdiyev – katta o‘qituvchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti	
Orif Nurmatovich Xolboyev – katta o‘qituvchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti	
Shaxboz Marat o‘g‘li Mirzayev – o‘qituvchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti	
<b>Individual ta’lim trayektoriyasini joriy etishda raqamli platformalardan foydalanish. ....</b>	<b>281</b>
Rabbim Mixlievich Yusupov – t.f.n. dotsent, Jizzax davlat pedagogika universiteti	
<b>Intellektual salohiyatni o‘rganish borasidagi yondashuvlar. ....</b>	<b>284</b>
Hakimbek Otaqulovich Yorqulov – s.f.n., dotsent, Toshkent kimyo-texnologiya instituti.	
<b>Texnika oliy ta’lim muassasalarida axborot-ta’lim muhitida fizika fanidan konvergent ma’ruza tashkil etish. ....</b>	<b>291</b>
Samar Sattor o‘g‘li Alikulov – dotsent, Jizzax politexnika instituti	
<b>Geometry of Lobachevsky in problems. ....</b>	<b>297</b>
Sayora Sayidakbarovna Kukiyeva – Associate Professor, Fergana State University	
<b>Sun’iy intellekt va kompyuter simulyatorlari integratsiyasuning o‘qituvchi kasbiy maxoratni oshirishga ta’siri. ....</b>	<b>302</b>
Sarvar Musurmonovich Jumaboev – dotsent, Jizzax davlat pedagogika universiteti,	
Sodiq Usmonov – dotsent, Jizzax davlat pedagogika universiteti	
<b>Tabiiy radiatsiyaning hosil bo‘lish manbalari. ....</b>	<b>305</b>
Anvar Razzaqovich Qurbonov – f-m.f.b.(PhD), Jizzax davlat pedagogika universiteti	
Dinor Abdullayeva – magistr, Jizzax davlat pedagogika universiteti	
<b>Sirkad tizimining fiziologik ahamiyati. ....</b>	<b>310</b>
Gulnoza Ablakulovna Abdirashidova – katta o‘qituvchi, Samarqand davlat tibbiyot universiteti	
<b>Web loyihalash vositasida talabalarning mediakompetentligini shakllantirishning pedagogik-psixologik jihatlari. ....</b>	<b>314</b>
Akbar Oynabekovich Otabekov – katta o‘qituvchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti	

<b>Biologiya fanidan o'quvchilarning mustaqil ta'lim faoliyatini samarali tashkil etishning innovatsion texnologiyalari</b> .....	319
Sanobar Qadambaevna Jumaniyazova – o'qituvchi, Toshkent Farmasevtika instituti qoshidagi akademik litsey	

## 07. YOSH TADQIQOTCHILAR

<b>Amaliy mashg'ulotlarda talabalarning ijodkorlik kompetensiyasini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari</b> .....	324
Islom Yetmishovich Azamatov – o'qituvchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti	
<b>The alienation and identity crisis in Franz Kafka's the metamorphosis</b> .....	329
Sunnat Ravshan o'g'li Qosimov – EFL Teacher, Jizzakh State Pedagogical University	
<b>Talabalarni jismoniy tarbiya va sportga jalb qilishda innovatsion texnologiyalar</b> .....	333
Eldor Ziyat o'g'li Nurmatov – o'qituvchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti	
<b>Zarafshon vohasi qoraqalpoqlari tarixining o'rganilishi haqida</b> .....	342
Orif Abdig'apparov – o'qituvchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti	
<b>The concept of nature and ecological poetics in Uzbek and English poetry</b> .....	349
Iroda Jumanovna Mamarasulova – teacher of Jizzakh State Pedagogical University	
<b>Лингвокультурологический аспект в преподавании РКИ в узбекской аудитории</b> .....	354
Зульфия Хусаиновна Агишева – преподаватель, Филиал Казанского (Приволжского) Федерального университета в г. Джизак	
<b>Oliy ta'lim muassasalarini boshqarishda marketing strategiyalarining transformatsion roli</b> .....	358
Uralbek Xurram o'g'li Buriyev – mustaqil izlanuvchi, Oreintal universiteti	
<b>Pedagogical approaches to teaching argumentative writing in English at the high school level</b> .....	365
Mohinur Muhiddin kizi Alisherova – PhD student, Namangan State University	
<b>Ekzistensializm va adabiyot: hayot mazmunini badiiy idrok etish</b> .....	369
Tilovmurod Turdiali o'g'li Musurmonov – tadqiqotchi, Shahrisabz davlat pedagogika instituti	
<b>Sobir O'nar ijodining estetik tamoyillari</b> .....	374
Mahliyo Mamasharif qizi Quدراتova – tadqiqotchi, Guliston davlat pedagogika universiteti	
<b>Milliy qadriyatlar asosida yoshlarni siyosiy ongini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlarini takomillashtirishning amaliy tizimi</b> .....	380
Nodirbek Oybek o'g'li Murodov – tayanch doktorant, Tarbiya pedagogikasi milliy instituti	
<b>O'qishdan tashqari faoliyatda tarix o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish omillari</b> .....	386
Alisher Zayirovich Suvonkulov – mustaqil tadqiqotchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti	
<b>Pedagogik nizolarni bartaraf etishda innovatsion yondashuvlar</b> .....	391
Nodira Valijonovna Anvarova – magistrant, Jizzax davlat pedagogika universiteti Ilmiy rahbar Feruza Meliyevna Sadriddinova dotsent, Jizzax davlat pedagogika universiteti	
<b>O'qish darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativ kompetentligini rivojlantirish</b> ..	395
Sojida Akbar qizi Oynabekova – magistrant, Jizzax davlat pedagogika universiteti	

**FILOLOGIYA FANLARI**

## QASHQADARYO SHEVALARINING O'RGANILISHI

Anvarbek Xusinovich Turdialiyev – v.b. dotsent, Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti  
Lazizjon Azamat o'g'li Tursunov – magistr,  
Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti

*Annotatsiya.* O'zbek Qashqadaryo shevalari ko'plab tadqiqotlar uchun o'rganish obyekti bo'lgan. Shevalar doimiy o'zgaruvchanligini inobatga oladigan bo'lsak hudud shevasini qayta tadqiq qilish bugunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. O'zbek tilining janubiy-g'arbiy guruhiga kiruvchi o'ziga xos sheva xususiyatlariga ega bo'lgan Qashqadaryo shevalari fonetik, leksik va grammatik jihatdan adabiy tildan farqli xususiyatlarga ega. Tadqiqotda shevalarning ichki tasnifi, 2020–2025–yillarda yangi to'plangan dala materiallari asosida shevalarning bugungi holati, yosh avlod orasida sheva unsurlarining kamayishi sabablari hamda ayrim leksik birliklarning yo'qolib borayotganligi ushbu areal shevalarini qayta tadqiq qilishga asos bo'lmoqda.

*Аннотация.* Кашкадарьинские диалекты узбекского языка являются предметом многочисленных исследований. Учитывая постоянную изменчивость диалектов, пересмотр регионального диалекта является одной из актуальных проблем. Кашкадарьинские диалекты, принадлежащие к юго-западной группе узбекского языка и обладающие собственными диалектными особенностями, имеют фонетические, лексические и грамматические характеристики, отличающиеся от литературного языка. В исследовании рассматривается внутренняя классификация диалектов, текущее состояние диалектов на основе вновь собранных полевых материалов в 2020–2025 годах, причины упадка диалектных элементов среди молодого поколения и исчезновения некоторых лексических единиц, которые служат основой для пересмотра этих ареальных диалектов.

*Abstract.* Uzbek dialects of Kashkadarya have been the subject of many studies. Given the constant variability of dialects, re-examination of the regional dialect is one of the current issues. Kashkadarya dialects, which belong to the southwestern group of the Uzbek language and have their own dialect features, have phonetic, lexical and grammatical characteristics that differ from the literary language. The study examines the internal classification of dialects, the current state of dialects based on newly collected field materials in 2020–2025, the reasons for the decline of dialect elements among the younger generation, and the disappearance of some lexical units, which serve as the basis for re-examining these areal dialects.

*Kalit so'zlar:* Qashqadaryo shevalari, o'zbek dialektologiyasi, fonetik o'zgarishlar, leksik xilma-xillik, sheva va adabiy til, qipchoq, oraliq sheva.

*Ключевые слова:* Кашкадарьинские диалекты, узбекская диалектология, фонетические изменения, лексическое разнообразие, диалектный и литературный язык, кипчакский, промежуточный диалект.

*Keywords:* Kashkadarya dialects, Uzbek dialectology, phonetic changes, lexical diversity, dialect and literary language, Kipchak, intermediate dialect.

Har bir xalq o'z mahalliy shevalarida muloqot yuritadi, binobarin, xalq o'z shevasi bilan birga yashaydi va sheva ham xalqning butun borlig'ini, moddiy va ma'naviy dunyosini, his-tuyg'ularini ifoda qiladi hamda bu jarayonda u to'xtovsiz rivojlanish sari faoliyatda bo'ladi va boyib boradi. Uning boyligi fonetik, grammatik va leksik sathlarda namoyon bo'ladi. O'zbek shevashunosligi hozirga qadar uzoq taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan. Shevalarni o'rganish,

turkologiyada M.Koshg'ariyning (XI asr) "Devonu lug'atit-turk" asaridan boshlangan bo'lsa, o'zbek tilshunosligida asrimizning 20-yillaridan boshlab hozirgacha turli aspektlarda o'rganilib kelinmoqda. O'zbek shevalarini o'rganishni professor S.Ashirboyev 5davr ga bo'lib tasniflaydi<sup>1</sup>. Xususan, shevalar ularning xususiyatlarini o'rganishga Y.D.Polivanov, K.K.Yudaxin, A.K.Borovkov, V.V.Reshetov kabi olimlar o'zbek shevalariga xos

1 Ashirboyev S. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Nodirabegim, 2021. – 176 b.

xususiyatlarini tadqiq qildi. Keyinchalik ushbu soha masalalari doirasida Sh.Shoabdurahmonov, A.Aliyev, B.Jo'rayev, X.Doniyorov, Y.G'ulomov, A.Ishayev, D.Abdurahmonov, A.Shermatov, S.Ibrohimov, N.Rajabov kabi olimlarimiz ilmiy-amaliy ahamiyatga ega tadqiqotlarni amalga oshirdilar<sup>2</sup>.

Qipchoq shevalari tadqiqi bo'yicha G'ozi Olim Yunusov, F.Abdullayev, F.Abdullayev, A.Shermatov, X.Doniyorov, B.Jo'rayev, O.To'raqulov, A.Aliyev, A.Ishayev, S.Rahimov, D.Abduraxmonov, T.Qudratov, N.Rajabov, A.Turaqulov(Farg'ona), T.Mirsoatov, T.Sodiqov, Sh.Nasirov, A.Mamatqulov, X.Alimurodov, M.Turabova, Sh.Shoabdurahmonov, N.Shoimova, singari olimlarimizning tadqiqotlarini alohida qayd qilish lozim<sup>3</sup>. Ushbu shevalar leksikasini o'rganish bo'yicha "Ат-тухфатуз закияти фил-луғат-ит туркия"<sup>4</sup> asari dastlabki manbalardan biri hisoblanadi. Sheva hodisalari va xususiyatlari yuzasidan yurtimizda ko'plab tadqiqot ishlari amalga oshirilgan, ammo hali o'z tadqiqini kutayotgan masalalar ham talaygina. Darhaqiqat, shevashunos olim S.Ashirboyev ta'kidlaganidek, "shevalar to'xtovsiz rivojlanib boradi, bu esa shevalarni doimiy ravishda nazariy jihatdan o'rganib borishni taqozo etadi va ilmiy-nazariy ahamiyatini keltirib chiqaradi"<sup>5</sup>.

Qashqadaryo vohasining deyarli har bir hududi shevasi yuzasidan ilmiy kuzatishlar olib borilgan. Jumladan, professor S.Ibrohimov Beshkent shahar, Mirishkor tumani shevalari bo'yicha qimmatli ma'lumotlarni keltirib hudud shevasida unililar soni 6-7ta ekanligi kombinator variantlari bilan 10dan oshmasligini ta'kidlaydi. Mirishkor shevasida esa unililarni (у, у, и, ы, е, а,

ә, э, о, ө) 10ta ekanligini ko'rsatadi. "Shuningdek, Sobirjon Ibrohimov Shahrisabzning kulol, kashtachi va boshqa hunarmandlari tilidan kasb-hunar terminlari hamda Chiroqchi tumanidagi qipchoqlarning til xususiyatlariga oid ayrim materiallar to'plagan"<sup>6</sup>. To'ra Qudratovning Qashqadaryo vohasi shevalari asosida olib borgan tadqiqotini oraliq shevalar tadqiqiga qo'yilgan monografik plandagi ish hisoblash mumkin<sup>7</sup>. Uning "O'zbek tilining oraliq shevalari" nomli tadqiqoti Qashqadaryo vohasining Shahrisabz, Yakkabog', Chiroqchi va Qamashi hududlaridagi sheva materiallari tadqiqiga bag'ishlanadi. Mazkur ishda qayd qilingan hududlardagi shevalarning fonetik, morfologik, leksik xususiyatlari o'rganiladi. Shuningdek, ishning kirish qismida Yuqori Qashqadaryoda yashovchi o'zbek urug'lari, bu urug'larning shu hududlarda o'troqlashib qolish sabablari, tarqalish chegarasi, oraliq shevalarning kelib chiqish belgilari, ularning tasnifi, sheva xususiyatlari xususida fikr yuritiladi.

Qashqadaryo shevalari leksikasi yuzasidan salmoqli tadqiqotlarni amalga oshirgan olimlarimizdan yana biri shevashunos Bolta Jo'rayevdir. Uning "O'zbek tilining Shahrisabz shevasi" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasi, "O'zbek adabiy tili va o'zbek dialektlari" (1963), "Yuqori Qashqadaryo o'zbek shevalari leksikasi // O'zbek shevalari leksikasi" (1966), "Yuqori Qashqadaryo o'zbek shevalari" (1969) nomli monografik ishlarini alohida qayd etish lozim. Muallifning "Yuqori Qashqadaryo o'zbek shevalari" nomli tadqiqot ishida Qashqadaryo o'zbek shevalari uch guruhga (shahar, qipchoq va oraliq shevalari) ajratib tasnif qilinadi,

2 Islomova Sh. Qashqadaryo qipchoq shevalari frazeologizmlarining ma'noviy va leksikografik talqini. Fil.f.f.d, (PhD). diss. – Toshkent, 2025. – B. 125.

3 Turdialiyev A. Denov shevalarini areal o'rganish va til korpusiga joylashtirish. Fil.f.f.d, (PhD). diss. – Toshkent, 2024. – B. 173; Ashirboyev S. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Nodirabegim, 2021. – 176 b.

4 Ат-тухфатуз закияти фил-луғат-ит туркия. – Тошкент: Фан, 1968. – 280 б.

5 Ashirboyev S. O'zbek dialektologiyasi. – Toshkent: Nodirabegim, 2021. – 176 b.

6 Иброҳимов С. Ўзбек тилининг Бешкент раён шевалари юзасидан кузатишлар//Ўзбек диалектологиясидан материаллар 1-том. В.В.Решетов таҳрири остида. – Тошкент, 1957. – Б. 269-297.

7 Қудратов Т. Ўзбек тилининг оралиқ шевалари: Фил. фан. номз... дисс. – Тошкент, 1968. – 260 б.

hudud shevalarining fonetik, grammatik va leksik xususiyatlari tahlilga tortilgan. Mazkur ilmiy ishning qimmatli tomoni shundaki, unda Yuqori Qashqadaryo o'zbek shevalari, ularning til xususiyatlari, umumo'zbek tili taraqqiyotida tutgan o'ziga xos o'rni haqida batafsil ma'lumotlar keltirilgan.

Qashqadaryo shevalari tadqiqotchilaridan yana biri Hamdam Hamrayevdir. H.Hamrayevning "O'zbek tilining Qashqadaryo shevalaridagi asosiy fonetik xususiyatlar" nomli dissertatsiyasi ham nafaqat Qashqadaryo shevalari, umuman, o'zbek qipchoq shevalari tadqiqida muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu tadqiqotda muallif Yuqori va Quyi Qashqadaryo hududi shevalari fonetikasi, unda yuz bergan asosiy fonetik hodisalar, ularning adabiy til fonetikasiga munosabati masalasiga asosiy diqqat qaratiladi<sup>8</sup>. Qashqadaryo shevalarining umumiy fonetikasi yuzasidan qimmatli ma'lumotlarni taqdim etadi.

Tilshunos A.Shermatovning ilmiy izlanishlarida ham Qashqadaryo viloyati o'zbek xalq shevalari masalalari tadqiq qilingan. Olimning "Qashqadaryo viloyatining o'zbek xalq shevalari" nomli monografiyasida qayd qilingan hududning qipchoq shevalarining fonetik, morfologik xususiyatlari to'liq ochib berilgan. "Shevaning fonetik, morfologik xususiyatlariga nisbatan leksik xususiyatlari juda kam darajada o'rganilgan". Xususan, A.Shermatov ushbu monografik tadqiqotida qayd qilingan hudud shevasiga mansub topishmoq, maqol va matallar, erkalash, tabrik, yaxshilik kabi turli istaklarni ifodalovchi frazeologizmlarni ruscha tarjimasini bilan alohida-alohida qayd etgan holda izohlaydi. Shuningdek, monografiyada qipchoq shevasi leksik qatlami mavzuiy guruhlariga ajratib tavsiflanadi. Muhimi, ushbu monografiya Qashqadaryo qipchoqlari leksikasiga xos

bo'lgan iboralar va ularning leksik-semantik, grammatik xususiyatlarini o'rganish, tavsiflash borasida qimmatli manbalardan biri sifatida xizmat qiladi. "A.Shermatovning mazkur ishi faqat qipchoq shevalarining emas, balki o'zbek tilining boshqa shevalarini o'rganish uchun ham muhim manba hisoblanadi". K.Usmonov, N.Rajabovlarning O'zbek shevalarida fe'lning xususiyatlariga bag'ishlangan izlanishlari o'zbek adabiy tilidagi fe'l so'z turkumi hamda fe'ldagi zamon shakllarining paydo bo'lish yo'llari hamda bu shakllarning o'zbek shevalaridagi ko'rinishlari, adabiy tildagi zamon shakllari bilan bo'lgan munosabatlari ilmiy jihatdan o'zining to'la tavsifini topgan<sup>9</sup>.

Qashqadaryo qipchoq shevalari leksikasi tadqiqi doirasidagi ilmiy izlanishlar sirasida N.Sholimovning<sup>10</sup> tadqiqoti ham alohida o'rin egallaydi. Uning nomzodlik dissertatsiyasi darajasida bajarilgan "O'rta Qashqadaryo 3-lovchi qipchoq shevalari leksikasi" mavzusidagi ilmiy izlanishida kuzatuvimizdagi shevalarga xos leksik hodisalar tadqiq qilingan. Ushbu ishda qayd etilishicha, "O'rta Qashqadaryo 3-lovchi qipchoq shevasi vakillari nutqida qo'llanayotgan jamiki lisoniy boylik qadimiyligidan tashqari, zamon zayli bilan yangi-yangi leksemalar hisobiga ham boyib kelmoqda. Biroq oradan qanchadan-qancha vaqt o'tgan bo'lishiga qaramay, boshqa shevalar vakillari singari O'rta Qashqadaryo hududida istiqomat qiluvchi "3" lovchi sheva vakillari o'zlarining fonetik talaffuz normalarini saqlab, ota-bobolari nutqida qo'llangan leksik birliklarni ham avaylab, asrab kelishmoqda. Binobarin, bu leksik boylikni to'plash va tadqiq etish, yuqorida qayd etilganidek, hozirgi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmayotir". Darhaqiqat, shevalar, ularning o'ziga xos leksikasi xalqimiz o'tmishi, tili va madaniyati, san'ati, qadriyatlaridan boxabarlikni ta'minlash borasida bebaho manba, o'tmish va kelajakni

8 Xamraev.X. Ўзбек тилининг Қашқадарё шеваларидаги асосий фонетик хусусиятлар. Филол фан. номз. ... дисс. –Тошкент.1973.-150 б.

9 Усмонов К. Ўзбек шеваларида феълнинг ўтган зamon формалари. Филол фан. номз. ... дисс. – Самарқанд-Тошкент, 1969. – Б. 170; Ражабов Н. Ўзбек халқ шеваларида феълнинг морфологик тузилиши.—Тошкент, Фан, 1990.

10 Шоимова Н. Ўрта Қашқадарё желовчи қипчоқ шевалари лексикаси. Филол. фан. номз... дисс. – Тошкент, 1999. – 174 б.

o‘zaro bog‘lovchi birlamchi vositadir. Uning ilmiy jihatdan o‘rganilishi orqali ona tilimiz, madaniyat va qadriyatlarimizni chuqur anglash, ulardan bahra olish imkoniyatimiz ta‘minlanishi shubhasizdir<sup>11</sup>.

Qashqadaryo hududiga mansub Yakkabog‘, Chiroqchi, Qamashi tuman shevalari B.Jo‘rayev tomonidan yuqori Qashqadaryo hududlari shevasi deb qayd qilinadi<sup>12</sup>. N.Shoimova esa bu hududlarni vohaning qoq o‘rtasida joylashganligidan kelib chiqqan holda hudud shevalarini O‘rta Qashqadaryo shevalari sifatida ajratadi va shevaning leksik xususiyatlarini chuqur tahlil qiladi<sup>13</sup>, har bir shevaning leksik qatlamini mavzuiy guruhlar kesimida tadqiq qiladi. Xususan, qipchoq shevasida faol qo‘llangan leksik birliklarni insonning tashqi ko‘rinishini ifodalovchi, insonning ruhiy hissiyotlari, holatini ifodalovchi leksemalar, uy-ro‘zg‘or buyumlari nomlari va chorvachilik bilan aloqador tushunchalarni ifodalovchi so‘zlar kabi to‘rt guruhga ajratadi. Shuningdek, olima ushbu leksik birliklarning birortasi adabiy til leksikasida kuzatilmasligi va ular shevalarga oid lug‘atlardan joy olmaganligini alohida uqtiradi. Shunisi o‘rinliki, ishning kirish qismida O‘rta Qashqadaryo hududi va uning aholisi to‘g‘risida tarixiy-etnografik ma‘lumotlar ham qayd qilinadi, mavzuga aloqador ayrim tadqiqotlar yuzasidan fikr va mulohazalar ham bayon qilinadi.

Ishning so‘ngida O‘rta Qashqadaryo hududi shevalari nutqida qo‘llanuvchi so‘zlar lug‘ati ham ilova qilinadi. Lug‘atdagi so‘zlar u qadar ko‘p emas, biroq adabiy tilda uchramasligi, dialektal lug‘atlarda aks etmaganligi jihatdan ham qimmatli material sifatida ahamiyatlidir. Lug‘atda bosh so‘zlarning barchasi misollar bilan ta‘minlangan. Jumladan, goppï paxta solib qaviladigan yengsiz kiyim. Häjdär bâva žazdajam goppïniñ ustïdän çapan kijib äpsiz, terlâb ketmäjsiz-ma? Pänži besh yoshli qo‘y.

Pänžinižäm ertän bazarya aparip sätip kelämän.

Tilshunosligimiz rivojida professor To‘ra Nafasovning ham alohida xizmati mavjud<sup>14</sup>. Olimning ko‘plab ilmiy asarlari, monografiya, lug‘atlari, maqolalari, darslik va qo‘llanmalari o‘zbek tilshunosligining onomastika, shevashunosligi masalalari tadqiqi doirasida amalga oshirilgan. T.Nafasov Qashqadaryo shevalariga oid 8000 ortiq so‘zlarni to‘plab “Qashqadaryo o‘zbek xalq so‘zlari” lug‘atini tuzgan.

O‘zbek tili dehqonchilik leksikasining mukammal tadqiqotchisi professor X.Jabborovning ham Qashqadaryo shevalari tadqiqida o‘ziga xos munosib ulushini qayd qilish lozim. Olim tomonidan o‘zbek tilining sug‘orish va dehqonchilik leksikasi tadqiqi doirasida Janubiy O‘zbekistonning Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlari shahar va qishloqlaridagi aholi nutqidan salmoqli miqdorda xalq maqollari, iboralar va xalq atamallari, hikmatli so‘zlar yozib olinib, ularning o‘zbek tili lug‘at tarkibidagi o‘rni, leksik-semantik, grammatik, etimologik, terminologik, onomastik xususiyatlari monografik planda tadqiq qilingan. Shuningdek, X.Jabborovning<sup>15</sup> tadqiqotlarida xalqimizning dehqonchilik madaniyati, suv, sug‘orish kabi tushunchalar bilan bog‘liq xalq tilidagi juda ko‘plab barqaror birikmalar, xususan, iboralar ham o‘zining lingvistik talqinini topgan.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, Qashqadaryo areali ko‘plab dialektologik tadqiqot obyektini bo‘lganligidan tashqari murakkab dialektal zona ham hisoblanadi. Axborot davrida internet, texnika rivojlangan bir davrda oxirgi yillarda to‘plangan dala ma‘lumotlariga asoslanib hudud shevasini qayta tadqiq qilish lozim. Bu kichik tadqiqotimiz shu ishlarning boshlanish debochasi hisoblanadi.

11 Islomova Sh.X. O‘zbek qipchoq shevalari tadqiqiga doir. // “Filologiyaning dolzarb muammolari” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent, 2024. – B. 184-190.

12 Жўраев Б. Юқори Қашқадарё ўзбек шевалари. – Тошкент, 1969. – 168 б.

13 Шоимова Н. Ўрта Қашқадарё желовчи қипчоқ шевалари лексикаси. Филол. фан. номз... дисс. – Тошкент, 1999. – 174 б.

14 Нафасов Т. Қашқадарё ўзбек халқ сўзлари луғати. – Тошкент, 2011. – 144 б.

15 Жабборов Х. Ўзбек тилининг деҳқончилик лексикаси: Филол. фан. докт... дис. – Тошкент, 2017. – 252 б.